XALQ DEPUTATLARI BUXORO SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-103-2-42-K/25 Buxoro shahar

Buxoro shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi OʻRQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-21-112-2-0-K/25-son qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi 2025-yil 25- dekabrdagi OʻRQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 2025-yil 30-dekabrdagi VII-21-112-2-0-K/25-son qarori (keyingi oʻrinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Buxoro shahar mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **263 951,6 mln.soʻm** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **263 951,6 mln.soʻmga** tasdiqlanganligi, shuningdek, Buxoro shahar mahalliy budjetining shaxsiy gʻazna hisob varagʻida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori **2 214,0 mln.soʻm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Buxoro shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar mahalliy budjetidan

2026-yilda budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meʼyorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Buxoro shahar mahalliy budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2026-yil uchun **2 914,2 mln.soʻm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi taʼminlansin.

5. Buxoro shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari, shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Sh.Karimov), shahar soliq inspeksiyasi (A.Gʻafurov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

6. Budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablagʻlarining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi;

oʻzlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining toʻgʻri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning toʻliq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi;

oʻz tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini taʼminlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda maʼlumotlarni joylashtirib borilishini taʼminlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ma’murov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Zadayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Q.I.Tursunov**

Xalq deputatlari Buxoro shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-103-2-42-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i		9 087 900,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	48 880 460,0	48 880 460,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	50 321 830,0	50 724 550,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i		11 675 940,0
5	Aksiz solig‘i, jami		
	shu jumladan:		
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq		
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 607 000,0	13 676 500,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	77 663 000,0	77 663 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	8 008 000,0	12 619 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	25 965 537,0	25 965 537,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)		50 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 011 000,0	1 795 000,0
12	Davlat boji		5 094 060,0
13	Jarimalar		2 931 840,0
14	Ijara to‘lovi	2 404 000,0	2 404 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad		
16	Yig‘imlar		1 383 800,0
17	Xususiylashtirish		
18	Boshqalar		
JAMI		**222 860 827,0**	**263 951 587,0**
19	O‘tkazib beriladigan daromad		
20	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar		
HAMMASI		**222 860 827,0**	**263 951 587,0**

Xalq deputatlari Buxoro shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-103-2-42-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026 yil uchun Buxoro shahar mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	XARAJATLAR-JAMI	**263 951 587,0**
1	Shahar maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari xarajatlari	76 051 648,0
	Shundan	
	"Mening maktabim"	2 781 000,0
2	Madaniyat muasasalari xarajatlari	34 374 499,0
3	Sport muassasalari xarajatlari	8 442 496,0
4	Yoshlar agentligi	8 528 121,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi xarajatlari	1 883 721,0
6	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi xarajatlari	3 688 610,0
7	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	395 610,0
8	Veterinariya xarajatlari	2 290 511,0
9	Hokimiyat	57 376 510,0
	Shundan:	
	F*uqarolar tashabbusi jamg‘armasi*	33 030 262,0
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	3 714 000,0
	Zahira jamg‘armasi mablag‘lari	2 914 220,0
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	60 214,0
	Shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	60 214,0
11	Obodonlashtirish boshqarmasi xarajatlari	70 859 647,0

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-103-2-42-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Buxoro shahar mahalliy byudjetiga 2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

№	Soliqlar va to‘lovlar nomi	2026-yilda ajratma me’yorlari			
		Shahar mahalliy budjetga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘I	0%	3%	20%	17%
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0%	5%	100%	95%
3	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	100%	100%	0%	0%
4	Foyda solig‘i	0%	10%	100%	90%
5	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) aksiz solig‘i	0%	0%	30%	30%
6	Pivoga aksiz solig‘i	0%	0%	30%	30%
7	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0%	0%	100%	100%
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	25%	100%	75%
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0%	25%	100%	75%
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%	0%	0%

11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%	0%	0%
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	0%	100%	100%	0%
13	Aylanmadan soliq	100%		0%	
14	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100%		0%	
15	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	100%		0%	
16	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	100%		0%	
17	Davlat Mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100%		0%	
16	Davlat boji	6%		94%	
17	Jarimalar	6%		94%	
18	Yig‘imlar	5%		95%	

Izoh: 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq Buxoro shahar mahalliy budjetiga yo‘naltiriladi;

2. Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig‘imlar (3 422 203) bo‘yicha tushumlar to‘liq Buxoro shahar mahalliy bdjetiga yo‘naltiriladi;

3. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari (3510810) Buxoro shahar mahalliy budjeti hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan me’yorlarga asosan taqsimlanadi.